

Date: 9<sup>th</sup> April-2026

“DEVONI JALILIY” QO‘LYOZMASINING ILMIIY TAVSIFI

Mohinur Kamolova Olimjon qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

2-bosqich magistri

**Annottatsiya:** Mazkur maqolada Qo‘qon adabiy muhitida ijod qilgan Jaliliyning “Devoni Jaliliy” asarining O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida №4325 raqami ostida saqlanuvchi qo‘lyozmasi paleografik va kodekologik jihatdan ilmiy tavsif qilingan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Jaliliy, “Devoni Jaliliy”, Qo‘qon adabiy muhiti, devon, g‘azal.

**Annotation:** This article provides a scholarly paleographic and codicological description of the manuscript of “Divani Jaliliy” by Jaliliy, a poet who created within the Kokand literary milieu. The manuscript is preserved under inventory number №4325 at the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** Jaliliy, “Divani Jaliliy”, Kokand literary milieu, divan, ghazal.

Bugungi kunda o‘zbek adabiyoti tarixini ilmiy hamda birlamchi manbalarga asoslangan holda tadqiq etish, xususan, qo‘lyozma manbalarni manbashunoslik, matnshunoslik va adabiy nuqtayi nazardan o‘rganish matnshunoslik va adabiy manbashunoslik oldida turgan dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Qo‘lyozma manbalar muayyan davrning ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, diniy, adabiy va madaniy hayotini bevosita aks ettiruvchi birlamchi manbalar sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ularni tizimli o‘rganish tarixiy va adabiy jarayonlarni xolis va keng yoritish imkonini beradi.

Mazkur maqolada Jaliliy devoni qo‘lyozmasi matnshunoslik va adabiy manbashunoslik tamoyillari asosida tahlilga torilgan holda uning ilmiy ahamiyatini aniqlashdan iborat. Shu bilan birgalikda, qo‘lyozmaning tasnifi, saqlanish holati, matniy xususiyatlari va mazmuniy jihatlariga ham to‘xtalib o‘tiladi.

Bugungi kunda nafaqat yurtimiz kutubxonalari va qo‘lyozmalar fondlarida, balki jahonning ko‘plab mashhur kutubxona va muzeylarida o‘zbek adabiyoti, tarix hamda madaniy hayotini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadigan noyob va qimmatli qo‘lyozma manbalar saqlanib kelinmoqda. Ushbu qo‘lyozmalar asrlar davomida shakllangan ilmiy, adabiy va ma‘naviy tafakkurning muhim namunalarini o‘zida mujassam etadi. Shunga qaramay, ushbu qo‘lyozmalarning aksariyat qismi hozirgi kunga qadar yetarli darajada ilmiy tadqiq yoki nashr qilinmagan, ya‘ni keng jamoatchilik va ilm ahliga havola qilinmagan.

Ana shunday maxsus tadqiq etilmagan, lekin ilmiy-adabiy jihatdan muhim qo‘lyozma manbalardan biri “Devoni Jaliliy” hisoblanadi. Mazkur devon muallifning badiiy tafakkuri, estetik qarashlari va davr adabiy muhiti haqida qimmatli ma‘lumotlar beruvchi nodir manba sifatida e‘tiborga loyiqdir. Jaliliy devonida jamlangan she‘riy asarlar o‘z davrining ijtimoiy-ma‘naviy muhitini, adabiy an‘analarini hamda mumtoz she‘riyatga



Date: 9<sup>th</sup> April-2026

xos poetik uslub va janr hamda matn xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Jaliliy devonining ilmiy nashrini tayyorlash nafaqat muallif ijodini to'laqonli yoritishga, balki mumtoz adabiyotimizning hali noma'lum qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.

“Devoni Jaliliy”ning qo'lyozmasi hozirgi kunda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida №4325 inventar raqami ostida saqlanadi. Ushbu devon 169 varaqdan iborat. O'lchami 13,5x23. Ushbu nusxa nasx xatida kitobat qilingan. Har bir sahifadagi misralar soni 13 tadan iborat. Qo'lyozmada jadval, unvon, badiiy bezak, miniaturalar mavjud emas. Devondagi she'rlar bir biridan ajratilmagan. Uning muqovasi qattiq jigarrang kartondan ishlangan. Qo'lyozmaning oldi va orqasida uch tamg'a mavjud. Shuningdek, ayni qo'lyozmada Jaliliyning devoniga aloqasi bo'lmagan fors va o'zbek tilida yozilgan ma'lumotlar ham mavjud. Qo'lyozmaning ko'plab varaqlari shikastlangan. Qo'lyozmaning boshlanishi va oxirgi varaqlari, shuningdek, o'rtalaridan ham varaqlar yo'qolgan. Bu qo'lyozma 1 a varaqda quyidagi bayt bilan boshlangan:

سهل اعياستورور و حاصل ايليغا كليك كار مرد،

عشق اوتىغه اورتنيب قيل ناله افغان روز شوب.

لايقا يور قجان بولغايلار.....،

باغلا محكم بيلىنى قيلغىل كار مردان روز شوب.<sup>5</sup>

*Sahl e'yo'si<sup>6</sup> turur hosil aylag'on kilik<sup>7</sup> kori mard,*

*Ishq o'tig'a o'rtanib qil nola afg'on ro'zu shab.*

*Loiqa yuvar qachon bo'lg'oylor .....,*

*Bog'la mahkam belni qilg'il kori mardon ro'zi shab.*

Devondaning asosiy qismi g'azal janridagi she'rlardan iborat bo'lib. Ular boshqa ko'plab devonlar kabi arab alifbosi tartibida joylashtirilgan. Yuqoridagi baytlar arab alifbosining ب – be harfiga tugagan g'azaldan boshlangan. Bizningcha ا – alif harfiga tugallangan g'azallar o'rin olgan varaqlar yo'qolgan. Ya'ni ushbu qo'lyozmada ا – alif harfiga tugallangan birorta ham g'azal mavjud emas. G'azallar bir biridan ajratilmagan. Har bir g'azal misrasi ikki ustun holda yonma yon ko'chirilgan, aksariyat g'azalning maqtasi ikki g'azalni bir biridan ajratib olish uchun bo'lsa kerak ustma ust holda yozilgan:


<sup>5</sup> Abdjalil Ziyoiy. Devoni Jaliliy. Qo'lyozma. O'zR.FASHI. №4325. V. 1a.

<sup>6</sup> E'yo' — arabcha, charchamoq, holdan toymoq.

<sup>7</sup> Kilik — forscha, jimjimaloq barmoq.



Date: 9<sup>th</sup> April-2026



Abdujalil Ziyoiy. Devoni Jaliliy. Qo‘lyozma. O‘zR.FASHI. №4325. 3b va 4a varaqlar.

Ayni qo‘lyozmaning eng katta nusqoni ko‘plab varaqlar yo‘qolganidir. Bunday holat 67 varaqda ham mavjud bo‘lib, buni poygir bilan keyingi varaqning birinchi so‘zi boshqa-boshqa ekanligi ham tasdiqlaydi. Ya‘ni poygir so‘zi – آشنا, lekin keyingi varaqning boshlanish so‘zi – عجب.

Jaliliy devoni qo‘lyozmasidagi g‘azallarning qaysi harfga qancha g‘azal ekanligini quyidagi jadvalda berishni maqbul ko‘rdik:

Jadval

№	Harflar	G‘azallar soni	Varaqlari
1	ا	-	-
2	ب	9	1a – 4a
3	ت	6	4a – 6a
4	ث	2	6a – 6b
5	ج	1	6b – 7a
6	ح	3	7a – 7b
7	خ	-	-
8	د	2	10a – 10b
9	ذ	-	-
10	ر	33	10b – 26a
9	ز	9	26b – 30a
10	س	6	30a – 32b


Date: 9<sup>th</sup> April-2026

11	ش	4	32b – 34a,
12	ص	2	34a – 34b
13	ض	3	34b – 35b
14	ط	1	35b,
15	ظ	1	36a -36b
16	ع	1	36b – 37a
17	غ	3	37a – 38a
18	ف	1	38a
19	ق	7	38a – 41a
20	ك	12	41a – 48a
21	گ	12	48a – 54a
22	م	13	54a – 59b
23	ن	34	59b – 72a
24	و	6	72b – 75a
25	ه	8	75b – 78b
26	لا	-	-
27	ی	94	78b – 116b
	26 harfga	273	1a – 116b

Jadvaldan ma'lum bo'lmoqdaki, Jaliliy devoni qo'lyozma nusxasiga 23 arab harfiga tugallanuvchi 273 ta g'azal kiritilgan. Devonda لا، ذ، خ، گ harflariga tugallanuvchi g'azallar yo'q. ۱ harfiga tugallanuvchi g'azallar joylashgan varaqlar yo'qolgan.

Ayni qo'lyozmada bo'sh varaqlar ham bor. Masalan 8 va 9 varaqlarga she'rlar yozilmagan.

Ushbu nusxada ham asosiy matndan tushib qolgan yoki unitib qoldirilgan g'azallar hoshiyaga yozilgan yoki kotib yanglishib ko'chirgan g'azallarini ustidan chizib o'chirgan holatlar ham mavjud bo'lib, bunday holatlardan birini 7a varaqda ko'rish mumkin:



Date: 9<sup>th</sup> April-2026

Abdualil Ziyoiy. Devoni Jaliliy. Qo'lyozma. O'zR.FASHI. №4325. V. 7a.

Poygilar bilan bog'liq xatoliklar ham ko'plab uchraydi. Xususan, 6b varaqda poygir – تمانا – “tamanno” so'zi, lekin 7a varaqdagi g'azal baytining dastlabki so'zi سن – “tilorsan” so'zi bilan boshlangan. 6b varaqning oxiridagi g'azal كچ – “Kech” radifli g'azal bo'lsa, 7a varaqning boshidagisi قاج – “Qoch” radifli g'azaldir. Qo'lyozmaning varaqlari keyinchalik raqamlangan. Bu jarayonda esa qo'lyozma orasidan varaqlar yo'qolgani hisobga olinmay, mavjud varaqlar ketma ketlikka raqamlab chiqilgan. Bu varaqlardagi poygir va keyin varaqdagi g'azalning birinchi so'zi boshqa boshqa ekanligi hamda g'azal radiflarining turlicha ekanli bular orasidan ham varaq yo'qolganiga dalolat qiladi. Shuningdek, yana bir poygir bilan bog'liq holat 7b varaqda ham mavjud. Bu varaqda poygir – ای جلیلی – “Ey Jaliliy” bo'lib, keyingi 8a va b, 9a va b varaqlar bo'sh. 10a varaqdan esa عشقا – “ishqqo” so'zi bilan مرید – “Murid” radifli g'azal boshlanadi. Bu yerda ham صباح – radifli g'azalning maqtasi hamda خ – harfiga tugallanuvchi ga'zallar, shu bilan birgalikda, د – harfiga tugallanuvchi g'azallar dastlabkilari joylashgan varaqlar ham yo'qolgan yoki kotib tomonidan yozilmay qolgan bo'lishi mumkin. د – harfiga ikkita g'azal bor. Biri مرید – “Murid” radifli g'azal bo'lib, yeti baytni tashkil etadi. Ikkinchisi مقلد – “Muqallid” radifli g'azal bo'lib, o'n yetti baytdan iborat. مرید – “Murid” radifli g'azalning boshlanish bayti quyidagicha:

عشقا تیلولانو نچه کامل مایل طاعت ایرور  
جان تنینده بارایلار جست جو جولان مرید<sup>8</sup>

*Ishqqo tilovlanuv necha komil moyili toat erur,  
Jon taninda bor aylor jo'st ju<sup>9</sup> javlon murid.*


XVIII-XIX asrda Qo'qonda o'ziga xos xattotlik va kitobchilik maktabi yuzaga kelgani yuqoridagi o'rinlarda ta'kidlandi. Har bir manba jumladan, qo'lyozmalar muallifning u yoki bu mavzu doirasidagi fikrini ko'rsatish bilan birga, uni ko'chirgan xattotning dunyoqarashi, ruhiyati, saviyasi va ma'naviy olamidani ham darak beradi. Shuningdek, qo'lyozma manba nima va qanday asar bo'lishidan tashqari o'sha davrning ijtimoiy va madaniy ko'rinishi haqida ma'lumotni u yoki bu darajada o'zida jam etgan bo'ladi. Jaliliy devonining qo'lyozmasini ko'zdan kechirganimizda kotibning ham o'ziga xos uslubi namoyon bo'ldi. Ko'plab o'rinlarda kotib o'z xatosini tahrirlab ketgan holatlar mavjud. Xususan, 5b varaqda joylashgan حاجت – “Hojat radifli o'n bir baytdan iborat g'azalning yettinchi baytidagi پاکیزه – “pokiza” so'zini ustidan chiziq tortib, xoshiyaga ایزلار کیم – “izlor kim” deb tahrirlagan. 16a varaqda joylashgan صوفیلار – “So'filar” radifli g'azalning oltinchi baytida ham shunday holat mavjud. Ya'ni kotib oltinchi bayt birinchi misrasida yozilgan گویا – “guyo” so'zining ustiga belgi qo'yib hoshiyada shu so'zning o'rniga یانگلیغ – “yanglig” so'zini yozib tahrirlagan. Shu bilan birgalikda 17b varaqning oxiridan o'rin olgan سیزلار – “Sizlar” radifli g'azal matlasining ikkinchi misrasi tahrirlangan. Yanglish yozib qo'yilgan ikkinchi misraning o'rniga, ayni misra ostidan to'g'ri shakl yozilgan:

<sup>8</sup> Abdualil Ziyoiy. Devoni Jaliliy. Qo'lyozma. O'zR.FASHI. №4325. V. 10a.

<sup>9</sup> Izlamog, qidirmog.



Date: 9<sup>th</sup> April-2026



Shuningdek, g'azallar yozilgan varaqlarda kotib xato yozib qo'ygan so'z, mirsa yoki baytlarning ustidan chiziq xhizib o'chirgan holatlar ko'plab uchraydi. Bunday holatlar 63a, 91b, 93a, 99a, 100a varaqlarda uchraydi.

99b varaqda بولغای - "bo'lg'oy" radifli g'azalning unutib qoldirilgan oxirgi ikki baytini hoshiyaga ko'chirib yozgan.

G'azallardan keyin 116b varaqdan to'rtliklar boshlanadi. Ushbu to'rtliklar ham bir biridan ajratilmagan holda ba'zilar bir ustun, ba'zilar esa ikki ustun shaklda yozilgan. Bu to'rtliklar mazmunan Ahmad Yassaviy hikmatlari uslubini eslatadi. Jaliliy devonining ayni qo'lyozmasi g'azal va to'rtlikdan iborat. 116b varaqdagi dastlabki to'rtlik quyidagidir:

توپه ترک گنه دور بیلسنگ کراک ای درویش  
سوی جانان کونگگولدین یورسنگ کراک ای درویش  
یاد خدانی تینمای هر شام هر سحرلار  
حاضر بولوب دل و جان قیلسنگ کراک ای درویش<sup>10</sup>

*Tavba tarki gunohdur, bilsang kerak ey darvesh,  
Suyi jononi ko'ngguldin yursang kerak ey darvesh.  
Yodi xudoni tinmay har shom, har saharlar,  
Hozir bo'lub dil-u jon qilsang kerak ey darvesh.*

Ushbu to'rtliklar yozilgan varaqlarda ham xat yozilgan misra yoki baytlarni ustidan chiziq tortib ochirilgan holatlar ham mavjud. Masalan bunday holatlarni 131a, 164a, 170b varaqlarda ko'rish mumkin. Shuningdek, 167b varaqda joylashgan 509-to'rtlikning to'rtinchi misrasining yarmini, 510-to'rtlikning birinchi baytidagi oxirgi so'zlarni varaq ta'mirlangan chog'da she'rlar ustiga qog'oz yopishtirilganli sababli o'qib bo'lmaydi.

Ushbu devon qo'lyozmasida to'rtliklar 540 tadan iborat bo'lib, 170b varaqda quyidagi to'rtlik bilan yakunlanadi:

تربیت شیخ اگر بولسه فنا معتبر  
صورت شیخنی سبب قیلسه خدا معتبر  
باقی اگر بلسه شیخ اوزلوکدین تارمو  
قیلمادیلار هیچ یولین راهنما معتبر<sup>11</sup>

*Tarbiyati shayx agar bo'lsa fano mo'tabar,  
Surati shayxni sabab qilsa xudo mo'tabar.  
Boqiy agar bo'lsa shayx o'zlikdan tormu,  
Qilmadilar hech yo'lin rohnamo mo'tabar.*


<sup>10</sup> Abdujalil Ziyoiy. Devoni Jaliliy. Qo'lyozma. O'zR.FASHI. №4325. V. 116b.

<sup>11</sup> Abdujalil Ziyoiy. Devoni Jaliliy. Qo'lyozma. O'zR.FASHI. №4325. V. 169b.



Date: 9<sup>th</sup> April-2026

To'rtliklarning oxiri joylashgan varaqlar hamda keyingi muallifi va nomi noma'lum bo'lgan fors tilida yozilgan, Islom tarixi bilan bog'liq bo'lgan, Umar ibn Xattobning Payg'ambar (s.a.v) qatliga ketayotgani voqeasi bilan boshlangan asarning ham boshlanishi joylashgan varaqlar yo'qolgan. Bu asar 185b varaqda yakunlangan. Bizningcha bu asarning Jaliliy devoniga aloqasi yo'q. Uning Jaliliyga tegishli ekanligiga dalolat qiluvchi ma'lumot uchramaydi. Jaliliy she'rlari o'rin olgan qog'oz hamda Jaliliy she'rlari yozuvi ham turlichadir. Shu jihatdan biz quyidagi ilmiy xulosaga qo'shilmaymiz: - "Ilmiy tadqiqot davomida Jaliliyning ikki tilni mukammal bilganligi, ya'ni turkiy va forsiy tillarda ijod qilganligi ma'lum bo'ldi. Jaliliy qo'lyozmasining nasriy qismi to'raligicha fors tilida yozilgan"<sup>12</sup>. Jaliliy devonidagi 1 – 169 varaqlarda joylashgan she'rlar ichida birorta ham fors tilida yozilgani uchramaydi. Lekin qo'lyozmaning 199b varag'ida Jaliliy mashq tarzida yozgan ikki baytli fors tilidagi she'r bor. Biroq, devondan keyingi asarlar to'raligicha fors tilida emas, ya'ni 171a varaqdan fors tilida, 192b varaqdan esa o'zbek tilda yozilgani qism ham uchraydi. Ikki rakat nomoz o'qimoqlikni niyyat qilgani, "sano" duosi, salovatlar yozilgan:



Abdualil Ziyoiy. Devoni Jaliliy. Qo'lyozma. O'zR.FASHI. №4325. 192b va 193a varaqlar.

198b varaqda kolofon ham mavjud bo'lib, unda hijriy 1284-yilda tugallangani keltirilgan. Bizningcha 171a varaqdan keyingi qismi Jaliliyga tegishli emas. Bu qism qo'lyozma ta'mirlangan chog'ida kiritilgan bo'lishi mumkin. Qo'lyozmada bu qismning Jaliliyga tegishli ekanli haqida ma'lumot uchratmadik.

<sup>12</sup> Jalilov Sh. "Jaliliy ijodida Qur'oni karimning ta'siri. Devoni Jaliliy misolida". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. Sentabr. P.205.



Date: 9<sup>th</sup> April-2026

Qo'lyozmaning 199b varag'ida quyidagi ikki bayt o'rin olgan bo'lib, uning ostiga  
مشقه عبدالجليل ضيائي – mashqi Abdujalil Ziyoyiy – Abdujalil Ziyoyiy mashqi deb yozilgan:

دل نظرگاه جليل داور است

خانه بنياد خليل آذر است

دل بدست آور که حج اکبر است


از هزاران کعبه یکدل بهتر است.<sup>13</sup>

*Deli nazargohi Jalil dovar ast*

*Xoneyi bo'nyodi Xalil ozar ast*

*Del bedast ovarke hajji akbar ast*

*Az hezoron del ka'be yekdel behtar ast.*



Abdujalil Ziyoyiy. Devoni Jaliliy. Qo'lyozma. O'zR.FASHI. №4325. 199b va  
200a varaqlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Jaliliy devonining qo'lyozmasi paleografik va kodikologik jihatdan tahlil qilinar ekan, unda o'z davriga xos yozuv xususiyati, kitobat uslubi va qo'lyozmalar tayyorlash an'analari mujassam ekanligi aniqlandi. Yozuv shakli, satr va sahifalarning tuzilishi, qog'oz hamda muqova xususiyatlari devonning ma'lum bir tarixiy muhitda ko'chirilganini namoyon etadi. Jaliliy devoni qo'lyozmasi oralaridan bir necha varaqlar yo'qolgan, qo'lyozmaga ba'zi o'rinlariga zarar yetgan bo'lsa-da, nafaqat o'zbek adabiyoti tarixi, Qo'qon adabiy muhitini o'rganishda, balki matnshunoslik va adabiy manbashunoslikda ham ahamiyati katta hisoblanadi. Shu bilan birgalikda kelgusida

<sup>13</sup> Abdujalil Ziyoyiy. Devoni Jaliliy. Qo'lyozma. O'zR.FASHI. №4325. V. 199b.



Date: 9<sup>th</sup> April-2026

matnshunoslik va adabiy manbashunoslik bo'yicha hamda Jaliliy devonidagi she'rlarning badiiyati va poetik xususiyatlari kabi mavzularda yangi-yangi tadqiqotlar uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI:**

1. Abduljalil Ziyoiy. Devoni Jaliliy. Qo'lyozma. O'zR.FASHI. №4325.
2. Jalilov Sharofiddin. "Jaliliy ijodida Qur'oni karimning ta'siri. Devoni Jaliliy misolida". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. Sentabr. P.203.
3. Jalilov Sharofiddin. "XIX asr Qo'qon adabiy muhiti va davr ijodkorlarining irfoniy asarlari, Jaliliy devoni". "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2022. 9-noyabr. B.221.
4. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Т.: Фан, 1961.
5. <https://vazhaju.tj>

